

MAHALLIY BYUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISH VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Ibragimov Rustam Allanovich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

Annotatsiya: Ishda fiskal siyosatning mazmuni va uni joriy qilishning obyektiv zarurligi asoslangan. O'zbekistonda byudjet daromad va xarajatlarini prognozlashtirishning tashkiliy- iqtisodiy asoslari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: fiskal siyosat, prognoz, rejalashtirish, byudjetni operativ boshqarish, unumdorlik prinsipi, byudjetlashtirish.

Аннотация: В данном статье обоснована содержание среднесрочной фискальной политики и объективной необходимости ее реализации. Анализируются организационные и экономические основы прогнозирования доходов и расходов государственного бюджета Республики Узбекистана.

Ключевые слова: фискальная политика, прогноз, планирование, оперативное управление бюджетом, принцип продуктивности, бюджетирование.

Abstract: This article substantiates the content of the medium-term fiscal policy and the objective need for its implementation. The organizational and economic foundations of medium-term forecasting of income and expenditure of the state budget of the Republic of Uzbekistan are analyzed.

Key words: medium-term fiscal policy, forecast, planning, operational budget management, the principle of productivity, budgeting.

Kirish

Zamonaviy sharoitlarda davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish, tez o'zgaruvchan bozor muhiti sharoitida o'rta muddatli byudjetni taxminlashtirish, davlat moliyasini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning o'rta muddatli ustuvor yo'nalishlarini realizatsiya qilishdagi imkoniyatlarini baholash maqsadida O'zbekistonda o'rta muddatli fiskal siyosatni amalga oshirish uslubiyotiga asoslangan davlat moliyasini boshqarish tizimi joriy qilindi. Ushbu tizim sharoitida davlat byudjeti daromadlarining kelgusi yiliga prognozi va navbatdagi 2 yili uchun taxmin ko'rsatkichlari aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni asosida amalga oshirilayotgan kompleks islohotlar davlat

moliyasi tizimini takomillashtirish bo'yicha ham keng islohotlarni amalga oshirishni taqozo qilmoqda.

Fiskal siyosat davlat moliyasi tizimidagi islohotlarni o'rta muddatli strategik yo'nalishi to'g'risida axborot olish va shuningdek, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlari bilan fiskal siyosatni uyg'unlashtirish imkoniyatini beradi.

Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini o'z vaqtida va to'liq ijobiy hal etish ma'lum moliyaviy asosni talab etadi. Aynan moliyaviy asosning markaziy bo'g'inini davlat byudjeti tashkil etadi. Davlat moliyasini sog'lomlashtirish, davlat byudjeti daromadlarining barqarorligi, ularni shakllantirish manbalari mukammal nisbati va butligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan byudjet tizimidagi islohotlarning hozirgi bosqichida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat byudjeti tizimidagi moliyaviy munosabatlarni samarali tashkil etish pirovardida byudjet ijrosini ijobiy natijaga erishishida muhim omil bo'lib hizmat qiladi. Davlat byudjetining to'g'ri va oqilona tashkil etilishi, nafaqat, mamlakat makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi, balki xo'jalik sub'ektlarining iqtisodiy faoliyatiga har tomonlama ta'sir etish orqali mamlakatning iqtisodiy yuksalishiga olib keladi. Bu holat, o'z navbatida mamlakat moliya tizimi barqarorligida muhim o'rin tutadi. Shu boisdan, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish mexanizmini takomillashtirish va byudjet daromadlari barqarorligini ta'minlash dolzarb masalalardan biridir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev quyidagilarni ta'kidlab o'tdilar: "Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat byudjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash – eng muhim ustuvor vazifamizdir". Davlat byudjeti barqarorligini ta'minlash hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biri ekanligi yuqorida keltirilgan fikrlardan ko'rinib turibdi. Ushbu maqsadga erishish uchun byudjet daromadlarini oshirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash hamda byudjet-soliq siyosati yaxlitligini ta'minlash muhim vazifa hisoblanadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat byudjeti mablag'larini shakllantirish va undan maksimal darajada samarali foydalanishga erishish davlat moliyasini boshqarish tizimining asosiy vazifalari biri hisoblanadi. Ma'lumki, o'tgan davr ichidagi barqaror byudjet tizimini to'liq shakllantirish sohasidagi barcha ishlarimiz va tajribalarimiz bu sohadagi jahon tajribasi bilan uyg'unlashdi, bu esa O'zbekiston Respublikasining "Byudjet Kodeksida" o'zining huquqiy aksini topdi. 2013-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Byudjet Kodeksi"gi qabul qilinishi O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimi tuzilishi hamda uni boshqarish asoslarini hamda davlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish

tartibini va Davlat byudjetining daromadlarini shakllantirish hamda uning xarajatlarini amalga oshirish printsiplarini yanada takomillashtirishga zamin yaratdi. Shuningdek, mazkur Kodeks davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarni hamda davlat byudjeti mablagʻlari bilan operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida hisobga olish, hisobot va nazorat qilish tartibini belgilaydi.

Mamlakatimizda 2017-2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasida ham xarajatlarning ijtimoiy yoʻnaltirilganini saqlab qolgan holda Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni taʼminlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish masalasi ustuvor yoʻnalish sifatida belgilangan.²

Moliya tizimining muhim boʻgʻini hisoblangan byudjet tizimini isloh qilishda quyidagi yoʻnalishlarni koʻrishimiz mumkin:

- Iqtisodiyotdagi soliq yukini qisqartirish siyosatini amalga oshirish jarayonida davlat byudjetning daromadlarini samarali shakllantirish va uning manbalari tarkibini optimallashtirish;
- daromadlarni davlat byudjetning turli boʻgʻinlari xarajat majburiyatlariga asoslangan holda taqsimlanish mexanizmini samarali shakllantirish,
- davlat byudjeti xarajatlarini manzilli va maqsadlilikini oshirishni taʼminlash. Ulardan iloji boricha iqtisod qilingan holda zaruriy ehtiyojlarni moliyalashtirishga yoʻnaltirish hisoblanadi.
- davlat byudjeti ijrosini gaznachilik tizimiga oʻtkazish va shu yoʻl bilan byudjet ijrosining samarali tizimini shakllantirish.

Ayni paytda byudjet-soliq siyosati ishlab chiqarishni oʻstirishga va uning samaradorligini oshirishga, soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar daromadlarini koʻpaytirishga qaratilgan boʻlishi lozim. Byudjet-soliq siyosatining xususiyati shundan iboratki, u nafaqat davlatning daromadlar bazasini taʼminlash va kelib tushgan pul mablagʻlarini xarajat qilish, balki jamiyatda makroiqtisodiy barqarorlikni hamda inflyatsiyaning past darajasini, aholining optimal bandligini taʼminlashi zarur.

Byudjet-soliq siyosati keng maʼnoda makroiqtisodiy barqarorlik va mustahkam iqtisodiy oʻsish, iqtisodiyotda tarkibiy oʻzgarishlarini taʼminlash, tashqi iqtisodiy faoliyatni va bosqichma-bosqich valyuta bozorini erkinlashtirish, aholining barqaror moddiy farovonligini taʼminlash va aholining ijtimoiy himoyasini oshirish kabi umumdavlat makroiqtisodiy vazifalarni taʼminlashga yoʻnaltirilgan. Byudjet-soliq siyosati amaliyotda amalga oshirish nuqtayi nazaridan birlamchi vazifalar oʻrtasida toʻgʻri muvofiqlikni aniqlash muhim hisoblanadi.

Mamlakatimizda soliq siyosatining eng muhim ustuvor yoʻnalishlari iqtisodiy siyosatning ustuvorligi, milliy boylikni tejash, milliy iqtisodiyotning oʻsish

darajasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, ikkiyoqlama soliqqa tortishning oldini olishga qaratilgan xalqaro kelishuvlar ijrosini, soliq to'lovchilarning ishchanlik kayfiyati, moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash, milliy dasturlarni amalga oshirish hamda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik yo'nalishlari va tamoyillariga asoslangan holda olib borildi.

Mamlakatimiz davlat byudjeti daromadlari tarkibida ham bilvosita soliqlar ulushi yuqori ulushi tashkil etadi. Xususan, 2022-yilda jami byudjet daromadlarida bilvosita soliqlarning ulushi 52,2 foizni tashkil etgan holda 2021-yilga nisbatan 1,1 foizli punktga oshgan.

Mazkur tendentsiyaning mavjudligi davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning hozirgi holati nuqtai-nazaridan ijobiy hisoblanadi. Buning sababi shundaki, qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'i iqtisodiy kon'yunkturaning o'zgarishlariga bevosita bog'liq bo'lmagan barqaror daromad manbalari hisoblanadi va egri soliqlar bo'yicha tushumlarning asosiy qismini tashkil etadi.

2022-yilda bevosita soliqlar 6353,7 mlrd. so'mni tashkil etgani holda, byudjet daromadlarining 24,0 foizini, YaIMning 5,3 foizini tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yil yakuniga ko'ra 15656,2 mlrd. so'mni, ya'ni byudjet daromadlarining 19,8 foizini, YaIMning 7,1 foizini tashkil qilgan.

Jahon soliq amaliyotida Davlat byudjeti daromadlari tarkibida to'g'ri va egri soliqlarning nisbatiga qarab u yoki bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasiga baho berish mumkin. Masalan. AQShda byudjet daromadlari tarkibida to'g'ri soliqlar salmog'ining 90 foizga yaqin bo'lishi bu mamlakat iqtisodiyotining yuqori darajada rivojlanganligidan darak beradi.

Mamlakatimiz davlat byudjeti daromadlari tarkibida ham bilvosita soliqlar ulushi yuqori ulushi tashkil etadi. Xususan, 2022-yilda jami byudjet daromadlarida bilvosita soliqlarning ulushi 52,2 foizni tashkil etgan holda 2021-yilga nisbatan 1,1 foizli punktga oshgan.

Mazkur tendentsiyaning mavjudligi davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning hozirgi holati nuqtai-nazaridan ijobiy hisoblanadi. Buning sababi shundaki, qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'i iqtisodiy kon'yunkturaning o'zgarishlariga bevosita bog'liq bo'lmagan barqaror daromad manbalari hisoblanadi va egri soliqlar bo'yicha tushumlarning asosiy qismini tashkil etadi.

Bilvosita soliqlar tarkibida yuqori ulushni qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'i egallagan bo'lib, 2022-yilda ularning jami byudjet daromadlaridagi salmog'i mos ravishda 35,2 foiz va 12,3 foizni tashkil etgan.

Mamlakat moliya tizimi barqarorligini ta'minlash va mazkur jarayonda davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish mexanizmini takomillashtirish byudjet-

solliq siyosatini samarali amalga oshirishga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Shu boisdan, byudjet-solliq siyosatini amalga oshirishda quyidagi ustuvor yo‘nalishlarga alohida e‘tibor berish maqsadga muvofiq:

- iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, makroiqtisodiy muvozanat va barqaror iqtisodiy o‘rtni saqlab qolish;
- xarajatlarning ijtimoiy yo‘naltirilganligini saqlab qolgan holda Davlat byudjeti balanslilikini ta‘minlash;
- mahalliy byudjetlarning daromadlar qismini mustahkamlash va kelgusida mahalliy byudjetlarni shakllantirish va ijro etishda mahalliy organlarning rolini yanada oshirishga yo‘naltirilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish va boshq.

Islahotlarni amalga oshirishda fuqarolik jamiyati salohiyatini ishga solish va shu asosda davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirish, jamoatchilik nazoratini ta‘minlash, olib borilayotgan byudjet siyosatini qo‘llab-quvvatlash va unga bo‘lgan ishonchni oshirish uchun sa‘y-harakatlarni quyidagilarga qaratish zarur:

Byudjet tizimi, barcha darajalardagi byudjetlarni, davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarini shakllantirish va ijro etish to‘g‘risida jamoatchilikni keng xabardor qilish orqali byudjetning ochiqligini va byudjet to‘g‘risidagi boshqa axborotini oshirish;

fuqarolar bilan aksincha aloqalarni yo‘lga qo‘yish (maslahatlashish), bu esa hukumat va aholi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning birinchi bosqichi hisoblanadi (fuqarolarning fikrlari sharhlari, qabul qilingan byudjet, uni ijro etish bo‘yicha fikr-mulohazalar);

fuqarolarni byudjetni muhokama qilish va uning ijrosini nazorat qilish jarayoniga jalb qilish uchun shart-sharoitlar va vositalar yaratish. Bu fuqarolarni muhokama qilish va byudjet bo‘yicha qarorlar qabul qilish jarayoniga faol jalb qilishni nazarda tutadi hamda hukumat va aholi o‘rtasida odinga tashlangan ikki tomonlama munosabat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.
2. Fayzullayev Yo.Sh., Azizova I.A., Byudjetni o‘rta muddatli rejalashtirish.- Toshkent: 2010.
3. Azizova I.A. Natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish. O‘quv qo‘llanma. T.:InfoCOM.UZ MCHJ nashriyoti, 2010.